RAQAMLI MUHITDA MUSIQA FANI ORQALI O‘QUVCHILARDA AXLOQIY MADANIYATNI RIVOJLANTIRISH

Yuldashev G‘ayratjon Ne’matjon o‘g‘li
Qori Niyoziy nomidagi TPMI tayanch doktoranti
https://doi.org/10.5281/zenodo.23523003

Annotatsiya. *Mazkur maqolada raqamli muhitda musiqa fani orqali o‘quvchilarda axloqiy madaniyatni rivojlantirishning pedagogik imkoniyatlari tahlil qilinadi. Milliy musiqa merosi, mumtoz va xalq musiqasi namunalarining tarbiyaviy mazmuni hamda ularni zamonaviy raqamli vositalar yordamida o‘rganish masalalari yoritiladi. Shuningdek, audio va videomateriallar, interaktiv topshiriqlar, elektron ta’lim resurslari va multimedia dasturlaridan foydalanishning o‘quvchilarning musiqiy idroki, estetik didi, tinglash madaniyati va axloqiy mushohadasini rivojlantirishdagi ahamiyati ko‘rib chiqiladi. Raqamli texnologiyalarni musiqa darslariga maqsadli integratsiya qilish zarurati asoslanadi.*

Kalit so‘zlar: *raqamli muhit, musiqa ta’limi, axloqiy madaniyat, milliy musiqa merosi, musiqiy tarbiya, raqamli texnologiyalar, audio-videomateriallar, multimedia resurslari, estetik did, tinglash madaniyati.*

Аннотация. *В статье анализируются педагогические возможности развития нравственной культуры учащихся посредством предмета музыки в цифровой среде. Рассматриваются воспитательное содержание национального музыкального наследия, образцов классической и народной музыки, а также возможности их изучения с использованием современных цифровых средств. Особое внимание уделяется значению аудио- и видеоматериалов, интерактивных заданий, электронных образовательных ресурсов и мультимедийных программ для развития музыкального восприятия, эстетического вкуса, культуры слушания и нравственного осмысления учащихся. Обосновывается необходимость целенаправленной интеграции цифровых технологий в уроки музыки.*

Ключевые слова: *цифровая среда, музыкальное образование, нравственная культура, национальное музыкальное наследие, музыкальное воспитание, цифровые технологии, аудиовидеоматериалы, мультимедийные ресурсы, эстетический вкус, культура слушания.*

Abstract. *This article examines how music education in a digital environment can develop students’ moral culture. It discusses the educational value of national musical heritage, including classical and folk music, and ways to study these works using digital tools. It highlights the role of audio and video materials, interactive tasks, electronic learning resources, and multimedia programs in developing musical perception, aesthetic taste, listening culture, and moral reflection.*

Keywords: *digital environment, music education, moral culture, national musical heritage, music upbringing, digital technologies, audio-video materials, multimedia resources, aesthetic taste, listening culture.*

Bugungi shiddatli davr barcha sohalarda bo‘lgani kabi ta’lim tizimida ham jahon miqyosida kechayotgan o‘zgarishlarga mos ravishda o‘qitishni taqozo etmoqda. Mamlakatimizning iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy sohalarida tub islohotlar amalga oshirilayotgan jarayonda jamiyatimizda milliy madaniyat va san’at, ma’naviyat va ma’rifat hamda taraqqiyot omillariga alohida e’tibor qaratilmoqda. Ota-bobolarimizdan meros bo‘lib kelayotgan bebaho milliy qadriyatlar va an’analarni imkon qadar to‘liq tiklash, tarixiy-madaniy yodgorliklarimizni,

jumladan, musiqiy merosimizni mufassal o‘rganish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Yoshlarning har tomonlama yetuk va barkamol bo‘lib voyaga yetishiga xizmat qilish har bir ustozning dolzarb vazifasidir. Vatanparvar, fidoyi, tashabbuskor va ma’naviy yetuk avlodni shakllantirish, egallangan bilimlarni keyingi avlodlarga yetkaza oladigan komil shaxsni tarbiyalash asosiy maqsadlardan biridir. Milliy musiqa xalqimizning tarixiy hayoti, dunyoqarashi, axloqiy qarashlari va ma’naviy tajribasining so‘z hamda ohanglardagi o‘ziga xos ifodasidir. Bugungi kunda milliy o‘zlik va milliy g‘oya masalalariga alohida e’tibor qaratilayotgan bir sharoitda milliy musiqa vositasida o‘quvchilarda axloqiy madaniyatni rivojlantirish, musiqiy merosimizni chuqur o‘rganish va uni raqamli muhit orqali keng targ‘ib qilish dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.

Musiqa inson hayotining ajralmas qismi bo‘lib, ajdodlarimizdan asrlar davomida bizgacha yetib kelgan, sayqal topib, tadrijiy ravishda rivojlangan ma’naviy merosdir. Jumladan, Abu Nasr Forobiy, Abu Ali ibn Sino, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, Najmiddin Kavkabiy, Darvish Ali Changiy kabi buyuk allomalarning risolalarida sozandalik san’ati, musiqani tinglash madaniyati va musiqa ilmi to‘g‘risida qimmatli ma’lumotlar bayon etilgan. O‘rta Osiyo xalqlari tarixida musiqa va adabiyot yuksak darajada rivojlangan bo‘lib, milliy musiqiy meros og‘zaki an’analar va tarixiy manbalar asosida avloddan avlodga o‘tib kelgan. Ushbu meros tarkibida xalq qo‘shiqlari, dostonlar, maqom namunalari va turli marosimlarga oid musiqiy asarlar alohida o‘rin egallaydi. Ularning mazmunida xalqning hayotiy tajribasi, axloqiy qarashlari, ezgulik, halollik, mehnatsevarlik va insonparvarlik kabi fazilatlar mujassam. Shu sababli mazkur musiqiy namunalarni raqamli ta’lim muhitida o‘rganish o‘quvchilarning musiqiy bilimlarini boyitish bilan birga, ularda axloqiy madaniyatni rivojlantirish imkonini ham beradi.

Jamiyatimizda milliy musiqani rivojlantirish va ta’lim jarayoniga tatbiq etish, shuningdek, yangi musiqiy asarlar yaratish o‘z ahamiyatini saqlab qolmoqda. Milliy musiqani qayta tiklash, o‘rganish va targ‘ib qilishda tarixiy xususiyatlarni hisobga olish o‘zbek xalqining tarixini, axloqiy qadriyatlarini va milliy ruhini asrab-avaylashda muhim ahamiyatga ega. Sharq mutafakkirlari Forobiy va Ibn Sino kabi Alisher Navoiy ham musiqaning cholg‘u va ashula shakllariga e’tibor qaratgan. So‘z va musiqa o‘zaro uyg‘unlashganda, ularning mazmuniy hamda badiiy ta’sir imkoniyatlari yanada kengayadi. Sharq mutafakkirlari qarashlarida musiqa insonning tafakkur qilishi, his-tuyg‘ularini anglash va ma’naviy kamolotga intilishiga ta’sir etuvchi vosita sifatida namoyon bo‘ladi. Bu esa musiqa ta’limining o‘quvchilarda axloqiy madaniyatni rivojlantirish, umuminsoniy qadriyatlarga qiziqishni oshirish va estetik didni shakllantirishdagi ahamiyatini belgilaydi. Raqamli vositalar yordamida mumtoz musiqa namunalarini tinglash, ularning mazmunini tahlil qilish va tarbiyaviy xususiyatlarini muhokama etish ushbu imkoniyatlardan samarali foydalanishga xizmat qiladi.

Bugungi kunda barcha fan va ta’lim sohalari qatori musiqa ta’limiga ham innovatsion texnologiyalarni joriy etish, ulardan foydalanish orqali ta’lim sifati va samaradorligini oshirish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Bu borada davlatimiz tomonidan amalga oshirilayotgan ta’lim islohotlari, jumladan, 2017–2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasida belgilangan oliy ta’lim muassasalari faoliyati sifati va samaradorligini oshirish, ilmiy tadqiqot hamda innovatsion faoliyatni rag‘batlantirish, ilmiy va innovatsion yutuqlarni amaliyotga joriy etish mexanizmlarini yaratishga doir vazifalar ta’limni modernizatsiya qilish uchun muhim asos bo‘ldi. Ta’lim sohasidagi eksperimental va innovatsion faoliyat yangi ta’lim texnologiyalari hamda resurslarini ishlab chiqish, ularni sinovdan o‘tkazish va ta’lim jarayoniga tatbiq etishga yo‘naltiriladi. Ta’limni yangi bosqichga ko‘tarish, jahon standartlariga mos va raqobatbardosh ta’lim tizimini shakllantirish pedagoglar oldiga muhim vazifalarni qo‘ymoqda. Innovatsion ta’lim texnologiyalari o‘quv jarayonini qulaylashtirish, o‘quvchilarning mustaqil o‘rganishini tashkil etish va ta’lim mazmunini tushunarli hamda qiziqarli shaklda yetkazish imkonini beradi. Musiqa fanida bunday texnologiyalardan foydalanish o‘quvchilarning musiqiy asarlarni idrok etishi, mazmunini tahlil qilishi va ularda ifodalangan axloqiy g‘oyalarni anglashiga ko‘maklashadi.

Milliy musiqamizni o‘rganish va o‘qitish tarixiy hamda nazariy bilimlar bilan bir qatorda amaliy mashg‘ulotlarga ham asoslanadi. Bu yo‘nalishdagi tadqiqotlar milliy musiqa san’atining rivojlanishi, uning avlodlar o‘rtasida davomiyligini ta’minlash va tarbiyaviy imkoniyatlarini aniqlash uchun zarurdir. Raqamli ta’lim resurslari milliy musiqiy merosni mustaqil o‘rganish, turli ijro namunalarini taqqoslash va ularning mazmunini chuqurroq anglashda qo‘shimcha imkoniyatlar yaratadi. Xususan, audioyozuvlar, videomateriallar, elektron o‘quv qo‘llanmalar va interaktiv topshiriqlar orqali o‘quvchilar milliy musiqa namunalarini tinglash, ijro xususiyatlarini kuzatish va asarlarda ifodalangan axloqiy mazmunni tahlil qilishlari mumkin. Bunday faoliyat musiqiy bilimlarni mustahkamlash bilan birga, o‘quvchilarning tinglash madaniyati, estetik qarashlari va axloqiy mushohadasini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Bolalarni qo‘shiq matnini tez va oson eslab qolishga o‘rgatish, matnning murakkabligiga qarab so‘zlarni izchil o‘zlashtirishiga ko‘maklashish musiqa ta’limining muhim jihatlaridan biridir. Qo‘shiq bandlarini birgalikda takrorlash, so‘zlarni to‘g‘ri, ta’sirli va aniq talaffuz qilishga o‘rgatish o‘quvchilarning ijro ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Matnni jarangdor qilib o‘qib berish artikulyatsiya apparatini faollashtirish, nafas olishni boshqarish va ovoz imkoniyatlaridan to‘g‘ri foydalanishga yordam beradi. Matnni zanjirband usulida takrorlash, ya’ni bir o‘quvchining birinchi satrni, ikkinchisining keyingi satrni va boshqa o‘quvchilarning navbat bilan davom ettirishi orqali butun she’rni o‘zlashtirish usuli

diqqatni jamlash va jamoada ishlash ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Ushbu jarayonda qo‘shiq matnida ifodalangan mazmunni tushuntirish, undagi axloqiy g‘oyalarni muhokama qilish ham muhimdir. Raqamli muhitda matn va audioyozuvlarni birgalikda taqdim etish o‘quvchilarning so‘zlarni to‘g‘ri o‘zlashtirishi hamda qo‘shiq mazmunini anglashini yengillashtiradi.

Yuqori sinf o‘quvchilaridan o‘rganilayotgan asarlar matnini mashq daftarlariga yozib olish talab etilishi mumkin. Boshlang‘ich sinflarda esa asar matnlarini doska yoki maxsus plakatlarga yozib o‘rgatish tavsiya etiladi. Shuningdek, kuylanadigan asar matnining qismlarini tarqatma materiallar va kartochkalarga yozish ham ijobiy natijalarga erishish imkonini beradi. Ushbu jarayonni kompyuter va boshqa raqamli vositalar yordamida tashkil etish ham zamonaviy ta’lim talablaridan biridir. Qo‘shiq matni uning kuy-ohangi bilan birgalikda o‘zlashtiriladi. O‘ynaylik omon, xalfa qo‘shiqlari, mehnat qo‘shiqlari, yalla va terma janridagi namunalar milliy musiqiy merosning muhim qismini tashkil etadi. Bunday asarlarni o‘rganishda ularning mazmuni, xalq hayotidagi o‘rni va axloqiy tarbiyaga oid jihatlarini yoritish o‘quvchilarda milliy qadriyatlarga hurmatni shakllantirishga yordam beradi.

Qo‘shiq kuyini o‘rgatish uning bandlarini matn bilan birgalikda o‘zlashtirish jarayoni bilan bog‘liq bo‘lib, bu ish o‘quvchilar va o‘qituvchidan diqqat-e’tibor talab qiladi. Kuyni o‘rgatishdan oldin uni biror musiqa asbobida ijro etish, qo‘shiqning birinchi bandini kuylab berish yoki turli texnik vositalar, audio va video yozuvlar yordamida o‘quvchilarga eslatish samaradorlikni oshiradi. Raqamli audioyozuvlar orqali asarning ijro xususiyatlarini qayta tinglash, ohang va ritmni farqlash hamda ijro jarayonini kuzatish o‘quvchilarning musiqiy idrokini rivojlantiradi. Shu bilan birga, asarning mazmuniga e’tibor qaratish, unda ifodalangan insoniy munosabatlar va axloqiy qarashlarni anglash uchun sharoit yaratiladi.

O‘qituvchi har bir bandni ifodali ijro etib berganidan so‘ng, o‘quvchilardan qo‘shiqni ma’lum sur’at va ohangda birgalikda kuylashni talab qiladi. Dastlab o‘quvchilar qo‘shiqni dadil ijro eta olmasliklari mumkin, biroq takroriy mashqlar natijasida ularning ijro ishonchi ortadi. Agar o‘rganilayotgan tartib o‘quvchilarga yetarli darajada tushunarli bo‘lmasa, kuyni cholg‘u asbobida qayta ijro etish yoki qo‘shiqni yana bir bor kuylab berish mumkin. Biroq mashg‘ulotda uzoq tanaffuslarga yo‘l qo‘ymaslik lozim, chunki bu o‘quvchilarning diqqatini susaytirishi mumkin. Qo‘shiqning qiyin qismlarini alohida o‘rgatish yaxshi natija beradi. Raqamli vositalardan foydalanganda murakkab ohanglarni qismlarga ajratib tinglash va qayta ijro etish imkoniyati o‘quvchilarning mustaqil mashq qilishiga yordam beradi. Asar mazmuni bilan bog‘liq savol va topshiriqlar esa ularning axloqiy mushohada yuritish ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

Mahalliy uslublarga xos, ijro jihatidan murakkab bo‘lgan qo‘shiqlar yuqori sinflarda ham o‘rgatiladi. Ayniqsa, oltinchi sinf musiqa dasturiga kiritilgan asarlar o‘quvchilarning avval egallagan bilim va ko‘nikmalarini namoyon etish imkonini

beradi. Musiqa darsligida 30 ta asar berilgan bo‘lib, shundan 7 tasi qadimdan shakllangan milliy musiqa merosimizga tegishlidir. Qolgan 23 tasi bolalar kompozitorlari hamda jahon klassik musiqasi namoyandalari ijodiga mansub. Ushbu asarlarning xilma-xilligi va murakkabligi o‘quvchilarning musiqiy dunyoqarashini kengaytirish imkonini beradi. Yettinchi sinfda turli vohalarga xos musiqiy janrlar o‘zlashtiriladi. Musiqa darsligida jami 44 ta asar taqdim etilgan bo‘lib, shundan 20 tasi milliy mumtoz musiqa namunalarini, qolgan 24 tasi esa o‘zbek kompozitorlari tomonidan yaratilgan asarlarni qamrab oladi. Xususan, Surxondaryo–Qashqadaryo mahalliy uslubiga xos cholg‘u musiqasi, mehnat qo‘shiqlari, lola sayli qo‘shiqlari, bahor mavsum-marosim qo‘shiqlari va baxshichilik san’ati bilan bir qatorda cho‘pon qo‘shiqlari ham o‘rin olgan. Buxoro–Samarqand mahalliy uslubiga xos “Bog‘bon qiz”, “Qarsak” janri, “Besh qarsak”, yallachilik san’ati, “Buy-buy”, “Dilbar”, “Mavrigi” va “Buxorcha” kabi namunalarni ham o‘rganish o‘quvchilarning milliy musiqiy meros haqidagi bilimlarini boyitadi. Mazkur asarlarni raqamli audio va videomateriallar orqali tinglash hamda taqqoslash ularning musiqiy xususiyatlarini anglashga, milliy qadriyatlarga hurmat va axloqiy madaniyatni rivojlantirishga xizmat qiladi.

Yettinchi sinfda Farg‘ona–Toshkent va Xorazm mahalliy uslublariga xos qo‘shiq hamda kuylar ham o‘rganiladi. Bu hududlarning o‘ziga xos musiqiy va adabiy an’analari mavjudligini ko‘rsatadi. Turli mahalliy uslublarga mansub asarlarni tinglash, ularning ijro xususiyatlarini o‘zaro taqqoslash va mazmunini tahlil qilish o‘quvchilarning musiqiy tafakkurini rivojlantiradi. Raqamli ta’lim muhitida bunday materiallarni audioyozuvlar, videolavhalar va elektron resurslar orqali taqdim etish o‘quvchilarning mustaqil o‘rganish imkoniyatlarini kengaytiradi. Shu bilan birga, milliy musiqa namunalarida aks etgan urf-odatlar, insoniy munosabatlar va axloqiy qarashlarni muhokama qilish orqali o‘quvchilarda milliy madaniyatga hurmat hamda axloqiy madaniyatni rivojlantirish mumkin.

O‘tgan davrda fan va texnologiyalarni rivojlantirish sohasida turli ta’lim yo‘nalishlari bo‘yicha zarur infratuzilmalar yaratilmoqda, muayyan intellektual va texnologik salohiyat shakllantirilmoqda. Bu, o‘z navbatida, ta’limni modernizatsiya qilish, yangi ta’lim texnologiyalari va resurslarini ishlab chiqish, ularni sinovdan o‘tkazish hamda ta’lim jarayoniga joriy etish imkoniyatlarini kengaytiradi. Biroq musiqa ta’limida tizimli muammolar, innovatsion g‘oyalar va texnologiyalarni ishlab chiqish hamda tatbiq etish uchun mavjud imkoniyatlardan yetarli foydalanmaslik holatlari kuzatilishi mumkin. Birinchidan, musiqa ta’limida zamonaviy fan va innovatsion texnologiyalarning yutuqlari hamda rivojlanish tendensiyalarini tahlil qilish va o‘rganish borasida ayrim kamchiliklar mavjud. O‘qituvchilar darslarni qiziqarli tashkil etish va o‘z fikrlarini tushunarli yetkazish uchun texnologik vositalardan samarali foydalanishlari kerak. Buning uchun pedagogik bloglar va forumlar orqali hamkasblar tajribasini o‘rganish, onlayn

kurslarda qatnashish hamda yangi dasturiy vositalarni o‘zlashtirish mumkin. Raqamli texnologiyalardan maqsadli foydalanish musiqa darslarining mazmunini boyitish bilan birga, o‘quvchilarning asarlarda ifodalangan axloqiy g‘oyalarni anglashiga ham ko‘maklashadi.

Art-texnologiyalarga asoslangan musiqa ta’limi texnologiyalarni musiqa faniga integratsiya qilish orqali o‘quvchilarga interaktiv va qiziqarli tajribalarni taqdim etish imkonini beradi. Masalan, turli musiqa janrlari, uslublari va cholg‘u asboblarini o‘rganish uchun raqamli platformalar yoki dasturiy vositalardan foydalanish o‘quvchilarning milliy va xalq musiqasi haqidagi tushunchalarini kengaytiradi. Kompyuter dasturlari yordamida tayyorlangan didaktik vositalar, o‘quv-metodik materiallar, elektron adabiyotlar, o‘rgatuvchi tizimlar va multimedia resurslaridan dars jarayonida foydalanish mumkin. Musiqa madaniyati darslarida PowerPoint, Sibelius va Audacity kabi dasturlardan samarali foydalanish musiqa asarlarini tinglash, tahlil qilish, ijro jarayonini o‘rganish va o‘quv materiallarini raqamli shaklda taqdim etishga yordam beradi. Elektron ta’lim dasturlari asosida musiqa ta’limining mazmuni milliy musiqiy merosga vorislik qila oladigan, umumbashariy musiqa boyligini idrok etadigan madaniyatli insonni voyaga yetkazishga yo‘naltiriladi. Mazkur tadqiqotning amaliy qismi umumta’lim maktabi o‘quvchilarining milliy musiqa merosini asrab-avaylagan holda o‘rganishi va uning tarbiyaviy imkoniyatlaridan foydalanishiga qaratilgan. Raqamli dasturiy vositalar o‘quvchilarda milliy musiqaga hurmat, insoniy qadriyatlarga e’tibor va axloqiy madaniyatni rivojlantirishga xizmat qilishi mumkin.

Raqamli muhitda musiqa fani orqali o‘quvchilarda axloqiy madaniyatni rivojlantirish milliy musiqa merosini zamonaviy ta’lim vositalari yordamida o‘rganish, musiqiy asarlarning mazmunini anglash va ularda ifodalangan axloqiy g‘oyalarni tahlil qilish bilan chambarchas bog‘liq. Audio va videomateriallar, interaktiv topshiriqlar hamda elektron ta’lim resurslaridan maqsadli foydalanish o‘quvchilarning musiqiy bilimlarini mustahkamlash bilan birga, ularning tinglash madaniyati, estetik didi va axloqiy mushohadasini rivojlantirishga imkon beradi. Shu sababli musiqa ta’limida raqamli texnologiyalarni to‘g‘ri qo‘llash, pedagoglarning raqamli kompetensiyalarini oshirish va milliy musiqiy merosni ta’lim jarayoniga izchil integratsiya qilish o‘quvchilarning axloqiy madaniyatini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Azizxo‘jayeva N.N. *Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat*. – Toshkent, 2018.
2. Yo‘ldoshev J.G. *Zamonaviy ta’lim texnologiyalari*. – Toshkent, 2020.
3. UNESCO. *ICT in Education*. – Paris, 2019.
4. O‘zbekiston Respublikasi “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. – Toshkent, 2020.